

# "Maxam-Chirchiq" Ajda sodir bo`lgan portlash yuzasidan qo`shimcha ma'lumot

// 04 October 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxsam-chirchiq-rasmiy-bayonot-qushimcha-malumot-2>

"O'zbekimiyosanoat" AJ tizimidagi "Maxam-Chirchiq" Ajning Ammiak-1 ishlab chiqarish sexi sintez bo`linmasida bugun sodir bo`lgan portlash natijasida sexning sintez kalonnasida kelib chiqqan yong'in o`chirildi. Vaziyat to`liq nazorat ostida. Hodisa oqibatida sexning 2 nafar xodimi jarohatlangan va hozirda ularga shifoxonada tibbiy muolajalar ko`rsatilmoqda.

Holat yuzasidan tezkorlik bilan axborotlar taqdim etib boriladi.





**"O`zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**